Qishloq hayoti

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IJTIMOIY-IQTISODIY GAZETASI

e-mail: infoqishloqhayoti@mail.ru

1974-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

2026-yil 12-noyabr, payshanba | **48** (9420) | t.me/Qishloqhayoti_gazetasi

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА АГРАР ТАЪЛИМ ВА ИЛМ-ФАННИ РИВОЖЛАНТИРИШ БАРҚАРОР ТАРАҚҚИЁТ ГАРОВИ

Янги Ўзбекистонда аграр соҳани тубдан модернизация қилиш, қишлоқ хўжалигини илм-фанга асосланган тармоққа айлантириш ва рақобатбардош кадрлар тайёрлаш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида белгиланган.

“Янги Ўзбекистоннинг энг катта таянчи ва устуни – таълим, билим ва тарбия бўлади”, деган ғоя аграр таълим тизимида амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда ҳам ўзининг амалий ифодасини топмоқда. Ушбу ғоя мазмунига кўра, таълим рақобатбардош ва малакали кадрлар тайёрлаш асоси, билим мамлакат тараққиёти ва инновацияларнинг бош омили, тарбия маънавий баркамол, ватанпарвар ва масъулиятли авлодни вояга етказишнинг асосидир. Бугунги кунда қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантиришнинг энг муҳим шарти таълим, илм-фан ва ишлаб чиқариш ўртасидаги мустаҳкам интеграцияни таъминлашдир. Замонавий аграр соҳа энди фақат анъанавий билим ва тажрибага эмас, балки илғор технологиялар, чуқур илмий таҳлил ва инновацион ёндошувларга асосланиши лозим.

(Давоми 4-саҳифада)



Юксак пахта хирмонида

СУВЧИЛАРНИНГ ҲАМ МУНОСИБ ҲИССАСИ БОР

Ерга уруғ қадалганидан то ҳосил йиғиб олингунга қадар деҳқоннинг энг катта умиди сувдан бўлади. Зеро, сув бор жойда ҳаёт, ризқ-рўз, барака бор. Пахтачиликда ҳам мўл ҳосилнинг асосий шартларидан бири экинларни ўз вақтида, етарли миқдорда сув билан таъминлашдир. Шу маънода, ҳар бир пахта хирмони ортида деҳқоннинг пешона тери билан бирга сувчиларнинг ҳам машаққатли меҳнати мужассам.

2026 йил Ўзбекистон пахтачилиги тарихида алоҳида ўрин эгаллади. Янги Ўзбекистон тарихида илк бор 5 миллион тоннадан зиёд пахта ҳосили етиштирилиб, рекорд натижа қайд этилди. Бу нафақат аграр соҳадаги ислоҳотларнинг, балки ер ва сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш, замонавий агротехнологияларни жорий этиш, илм-фан ютуқларини ишлаб чиқаришга татбиқ қилиш борасидаги изчил саъй-ҳаракатларнинг ҳам самарасидир. Давлатимиз раҳбари Ўзбекистон деҳқон ва фермерлари ҳамда барча қишлоқ хўжалиги ходимларига йўллаган табригида ушбу тарихий ютуқни юксак баҳолаб, шундай таъкидлади: **“Бу ютуқнинг ижодкори сизлар – азамат деҳқон ва фермерларимиз, моҳир агроном, сувчи, механизатор, олим ва мутахассисларимиз, кластер ходимлари, десак, адолатли фикрни айтган бўламиз”.**



Президентимизнинг бу эътирофи сув хўжалиги тизимида фаолият юритаётган минглаб мутахассислар, муҳандислар, гидротехниклар, насос станциялари операторлари, мироблар ва оддий сувчилар учун ҳам катта шарафдир. Чунки пахта ҳосилдорлигини оширишда энг муҳим вазифалардан бири – экин майдонларига сувни белгиланган муддатда ва зарур ҳажмда етказиб беришдир.

Бу йилги натижанинг аҳамияти фақат ҳосил миқдори билан ўлчанмайди. Энг муҳими, қишлоқ хўжалигида ер ва сувдан фойдаланиш самарадорлиги сезиларли даражада ортмоқда.

(Давоми 2-саҳифада)

МИЛЛИОН ЭГАТЛАРДАН ҚУТИЛГАН ЎЗБЕК

(Кун бадиҳаси)

Улуғ шоиримизнинг машҳур сатри мазмун-моҳиятида рақам бирламчи маъно ташийди – “Миллион эгатларга сочилган ўзбек” (ўзбеклар) тақдири акс этади. Олти миллион тонналик хирмонни минг азоб-уқубат билан дунёга келтиришда қатнашганлар сони қанча, деган саволни ўртага ташлашнинг ўзи кулгули. Негаки, пахта яккаҳокимлиги замонасида юртимизда иягига жон битган банда борки пахтакор эди. Эндигина униб чиққан ғўзани яганалашга киришилиши билан “Пахтазор – жанговар фронт!” дея кимдир ўйлаб топган шиор майдонга ташланар, токи сўнгги чаноқлар йиғиштириб олинмагунча ҳамманинг пешонасига тамға бўлиб урилар, ойнаи жаҳону радио, оммавий ахборот воситалари учун бирламчи мавзуга айланарди.

Ғўза ўтоғи баҳор охирида бошланиб, август ярмиларигача давом қилар, бу жараёнга ҳам миллионлаб “кўнгилли ҳашарчилар” қўшини ташланарди. Шу қўшинга кирмасликнинг мутлақ иложи йўқ, ахир “бешикда илк бора ўранчиқ матодан кафангача шу азиз пахтадан тайёрланади”, дейилмиш ғалат таърифу таснифлар кунда-кунаро шууримизга сингдириб турган замонада “элга келгани тўй”, дейилмиш ота-сўзимизга қарши чиқиб бўлармиди? Олти тонналик маррани эгаллаш халқимизга қанчага тушган? Бу жараёнда неча миллион нафар юртдошларимиз иштирок этганлар? Бу саволларга жавоб топиш катта авлод вакилларига осон. Қишлоқда яшаганлар билишардики, бирор элатдаги экин майдони ўртача олтмиш-етмиш гектарча келадиган бригада тартибидаги бирликда камида эллик нафарча одам ишларди. Уларнинг аксари хотин-қизлар даладаги энг оғир қўл меҳнатига маҳкум, эркаклар эса сувчи, тракторчи каби касбларга қўйиларди.

(Давоми 3-саҳифада)



КУЗГИ БОШОҚЛИ ДОН ЭКИНЛАРИ ПАРВАРИШИ

ноябрь-декабрь ойларида қандай агротехник тадбирлар амалга оширилади?

Ҳудудлардан олинган таклифларга асосан, келгуси йил ғалла ҳосили учун 1 млн. 100 минг гектар суғориладиган майдонларга кузги бошоқли дон экинлари экиш белгилаб олинган. Қишлоқ хўжалиги вазирлиги томонидан ҳар бир ғалла етиштирувчи фермер хўжалиги бажариши шарт бўлган 8 та қоида ишлаб чиқилди ва ҳудудларга етказилди. Ушбу қўлланмада ғалладан юқори ҳосил олишнинг асосий омилларидан бири, “майсалар қалинлиги-юқори ҳосил пойдевари” бўлиши кўрсатиб ўтилган. Шунга мувофиқ, 2027 йил ғалла ҳосилидан юқори ҳосил олиш учун гектарига 450-500 кг.дан уруғлик дон экиш белгилаб берилди. Экилган ғалла майдонларида тўлиқ кўчат ундириб олиш учун ёмғир сувига ишониб қолмасдан суғорилмоқда. Бугунги кунга қадар, 720 минг гектар (66%) ғалла майдонлари суғорилди, 592 минг гектари (54%) тўлиқ ундириб олинди.

Ҳудудларнинг тупроқ-иқлим шароитларидан келиб чиқиб, ноябрь-декабрь ойлари учун башорат қилинган об-ҳаво салқин келса, ғалла майдонларининг ҳайдов қатламида (майсаларни илдиз тизимидаги) ҳароратнинг пастлиги, намликнинг камайиши ҳамда азотнинг етишмаслиги ҳисобига майсалар сарғаяди, совуққа, қурғоқчиликка ва бошқа стресс омилларга берилувчан ҳамда касалликларга тез чалинувчан бўлиб қолади.

(Давоми 2-саҳифада)



ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИ

МАҲАЛЛА ОБОДЛИГИ – ХАЛҚ ФАРОВОНЛИГИ КЎЗГУСИ

Бугун Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлар, аввало, инсон қадрини улуғлаш, аҳоли турмуш фаровонлигини ошириш ва ҳар бир ҳудудда муносиб яшаш шароитларини яратишга қаратилгани билан аҳамиятлидир. Бу жараёнда маҳаллаларни ободонлаштириш, уларнинг инфратузилмасини замон талаблари асосида ривожлантириш устувор вазифалардан бирига айланган.

Жиззах шаҳридаги “Амир Темур” маҳалласида амалга оширилаётган бунёдкорлик ишлари ҳам ана шу эзгу мақсадларнинг ҳаётий ифодасидир. Кейинги йилларда маҳалла қиёфаси тубдан ўзгариб, ҳудудда аҳоли учун қулай ва замонавий яшаш муҳитини шакллантириш борасида салмоқли ишлар бажарилди.

(Давоми 2-саҳифада)



FERMER XO‘JALIKLARIDA ELEKTR TA’MINOTI UZLUKSIZLIGINI TA’MINLASHNING ZAMONAVIY YECHIMLARI

Yerga urug‘ qadagan dehqon osmondan yog‘in, dalasiga esa o‘z vaqtida obihayot yetib kelishini kutadi. Bugun suvni ekin maydonlariga yetkazuvchi nasoslar, sug‘orish uskunalari va boshqa texnikalar elektr quvvatiga tayanadi. Binobarin, barqaror elektr ta’minoti-fermer mehnatining bardavomligi demakdir.

Elektr uzilsa, daladagi yumush ham to‘xtaydimi?

Ko‘z oldingizga keltiring: sug‘orishning ayni avj pallasi. Nasos ishlab turibdi, suv egatlar bo‘ylab oqmoqda. Shu payt elektr uzilsa, ish maromi buziladi. Uzilish uzoq davom etsa, sug‘orish muddati cho‘zilib, qimmatli vaqt va mablag‘ zoye ketishi mumkin. Shu bois fermer uchun energiyani tejash qanchalik muhim bo‘lsa, uning ishonchli yetkazilishi ham shunchalik zarur.

(Davomi 2-sahifada)

MAHALLIYLASHTIRILGAN URUG‘LIK CHIGIT DORILASH MASHINASI ISHLAB CHIQILDI

Yurtimizda qishloq xo‘jaligi, xususan, paxtachilik sohasini yangi bosqichga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Prezidentimiz tomonidan urug‘chilik tizimini tubdan takomillashtirish, tezpishar, hosildorligi yuqori va zararkunandalarga chidamli yangi seleksion g‘o‘za navlarini yaratish, shuningdek, urug‘lik chigit tayyorlash texnika hamda texnologiyalarini rivojlantirish borasida bir qator qaror va farmonlar qabul qilingan. Bu hujjatlar sohani ilmiy asosda modernizatsiya qilish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratdi. Bugungi kunda ixtisoslashtirilgan urug‘lik chigit tayyorlash korxonalarida asosan tukli va tuksizlantirilgan urug‘lik chigitlar tayyorlanadi, bu jarayon esa «Urug‘lik chigit tayyorlash texnologik reglamenti» asosida izchil olib boriladi.

Ushbu texnologik tizimda urug‘lik chigitni pnevmo-mexanik usulda tozalash va saralash, tuksizlantirish, o‘lchamlari bo‘yicha kalibrlash, dorilash hamda qadoqlash kabi jarayonlar ketma-ket amalga oshiriladi, bu bosqichlar ichida esa dorilash jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu bosqichda chigitlar ekishdan oldin gommoz, ildiz chirish va boshqa kasallik hamda zararkunandalarga qarshi kimyoviy preparatlar bilan ishlov beriladi.

(Davomi 3-sahifada)



Mahalliylashtirilgan urug‘lik chigit dorilash mashinasi



КУЗГИ БОШОҚЛИ ДОН ЭКИНЛАРИ ПАРВАРИШИ

(Боши 1-саҳифада)

Натижада, буғдой майсалари тупламасдан қишловга киради. Қиш ойларида тупламаган 15-20 фоиз майсалар совуқ таъсирида нобуд бўлади, бу эса дон ҳосилдорлигининг 30-35 фоизгача пасайишига сабаб бўлади. Шунинг учун ундириб олинган ғалла майсаларига ноябрь-декабрь ойларида, ҳавонинг фойдали ҳарорати +10-120С бўлганда таркибида бор, кремний ва ацетилсалицил кислотаси бўлган микроэлементли ўғитлар ва биостумляторлар билан камида икки марта ишлов бериш тавсия этилади.

Таркибида бор кислотаси бўлган микроэлементли ўғитлар ва биостумляторлар ғалланинг кузги вегетация даврида углеводлар алмашинувини бошқаради, қанднинг барглардан илдиз тизимига ҳаракатланишини тезлаштиради ва совуқ уриши хавфини камайтиради. Таркибида кремний моддаси бўлган микроэлементли ўғитлар эса ғалла майсаларини мустаҳкамлайди, сув йўқотилишини камайтиради, озиқа моддаларининг ўзлаштирилишини қўллаб-қувватлайди. Айниқса, барг юзасида махсус ҳимоя қатламини ҳосил қилади. Бу ўсимликнинг сув танқислиги, шўрга чидамлигини оширади, шу билан бирга қишда совуқ уришидан ҳимоя қилади. Ҳужайраларда тўпланган кремний барг ва пояларни бақувват қилиши натижасида, замбуруғли касалликлар споралари ўсимлик тўқимасини зарарламайди. Таркибида ацетилсалицил кислотаси (аспирин) бўлган микроэлементли ўғитлар ғалла учун озиқа элементи (азот ёки фосфор каби) эмас, балки фитогормонал стимулятор ва иммуномодулятор ҳисобланади. Ғалла баргидан озиқлантирилганда стрессга чидамлилиги ошади, барглардаги оғизчаларнинг очилиб-ёпилишини бошқаради ва сув буғланишини камайтиради. Совуқ ҳавода ўсимлик ҳужайраларини музлашдан ва нобуд бўлишдан сақлайди, иммунитетни фаоллаштириб, касалликлардан ҳимоя қилинишини таъминлайди. Ўзидан ҳимоя моддаларини ишлаб чиқаради, занг, ун шудринг ва фузариоз каби замбуруғли касалликларга қарши курашувчанлигини кескин оширади, фотосинтез ва ўсишни жадаллаштиради. Илдиз тизимининг ривожланишини рағбатлантиради, бу эса тупроқдан асосий минерал ўғитларни тўлиқ ўзлаштиришга ёрдам бериб, ҳосилдорликни оширади ва дон сифатини яхшилайди. Бундан ташқари, ғалла 3-4 барг бўлганда гектарига 100-150 кг. меъёрда аммоний сульфат билан озиқлантириш, майсаларнинг ўсиш ва ривожланишини тезлаштиради, туплатади, қишки совуқ ва стрес омилларда чидамлиликни оширади. Бунда сульфат аммоний ўғити берилса, унинг таркибидаги азот аммоний шаклда бўлганлиги учун ўсимлик 70 кунгача ўзлаштиради, берилган ўғитнинг аммиак ҳолида ҳавога учиб кетишининг олди олинади ва майсаларнинг тупланишига ижобий таъсир кўрсатиб, қўшимча тупланишга эришилади ҳамда ўғитларнинг самарадорлиги ортишига сабаб бўлади.

Шунингдек, азотли ўғитлар буғдой вегетатив органларининг ривожланиши, тупланиш бўғинида 2-3 донагача қўшимча поялар, эрта баҳорда йирик тупланиш бўғинларидан йирик поялар шаклланиши ва бу пояларда йирик бошоқлар ҳосил бўлишини таъминлайди. Берилган азотли ўғитларнинг самарадорлигини ошириш учун озиқлантирилган ғалла майдонларини пешма-пеш "шарбат" усулида суғоришни ташкил этиш зарур бўлади. Ғалла майдонлари "шарбат" усулида суғорилганда нам узоқ сақланади, берилган минерал ўғитларнинг самарадорлиги ошади, ҳосилдорлик 6-8 центнергача ошади. Вегитация даврида "шарбат" усулида суғориш учун гектарига 5 тоннадан маҳаллий ўғит чиқариш, даланинг сув кирадиган қисмида ҳар 3 гектарда 1 донадан "шарбат" ўралар қазиш ва маҳаллий ўғит билан тўлдириш тавсия этилади. Ғўза қатор ораларига экилган ғалла майдонларига қуёш нури яхши тушмаганлиги сабабли, ғалла майсалари тўлиқ тупламасдан қишловга кириши ҳисобига 1 м2 да маҳсулдор поялар сонининг кескин камайиб кетишига олиб келади, шунинг учун ғўза қарор ораларига экилган майдонларни ғўзапоядан тозалаш тавсия этилади.

М. САНАҚУЛОВ,
Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги Пахта, техник, мойли, дон дуккакли ўсимликларни ривожлантириш бошқармаси бошлиғи,
Қ. ТЎРАҚУЛОВ,
Ғаллачилик ва дуккакли дон экинлари бўлими бошлиғи,
Ф. МИРЗАЕВ,
Ўсимликлар ҳимояси ва агрокимё бўлими бошлиғи.

Эълонлар

07-22/4177 рақами билан 1994 йил Солуянова Ольга Николаевна номига берилган хонадонга эгалик ҳуқуқини берувчи Давлат ордери йўқолганлиги муносабати билан ҳақиқий эмас, деб ҳисобланади.

04-02/824 рақами билан 1993 йил 2 январда Атаходжаев Мукаррамга берилган хонадонга эгалик ҳуқуқини берувчи Давлат ордери йўқолганлиги муносабати билан ҳақиқий эмас, деб ҳисобланади.

Юксак пахта хирмонида СУВЧИЛАРНИНГ ҲАМ МУНОСИБ ҲИССАСИ БОР

(Боши 1-саҳифада)

Президент табригида келтирилган маълумотларга кўра, **ўтган даврда пахтачиликда ҳосилдорлик 2,7 карра ошиб, гектарига 21 центнердан 56 центнерга етди. Айрим фермер хўжаликлари эса ҳар гектардан 100–110 центнергача ҳосил олишга эришди.**

Бундай кўрсаткичлар замирида янги навлар, илғор агротехник тадбирлар ва замонавий техника билан бир қаторда, сувни тежаб, ундан самарали фойдаланишга қаратилган ўзгаришлар ҳам бор. Зеро, бугунги пахтачиликда асосий мақсад шунчаки кўп сув сарфлаш эмас, балки ҳар бир куб метр сув ҳисобидан юқори ҳосил олишдир.

СУВ ТЕЖАЛМОҚДА, ҲОСИЛДОРЛИК ОШМОҚДА

Иқлим ўзгариши, сув ресурсларининг чекланганлиги ва қишлоқ хўжалигида сувга бўлган эҳтиёжнинг ортиши мамлакатимиз олдига муҳим вазифаларни қўймоқда. Бундай шароитда сув таъминотининг барқарорлигини таъминлаш, ирригация тармоқларидаги йўқотишларни камайтириш ҳамда тежамкор технологияларни оммалаштириш стратегик аҳамият касб этади. 2026 йилда иқтисодиёт тармоқларига 32,6 миллиард куб метр сув олиш лимити белгиланди. Январь–октябрь ойларида сув ресурсларини самарали бошқариш, ирригация тармоқларини таъмирлаш ва бетонлаш, замонавий сув тежовчи ҳамда рақамли технологияларни жорий этиш натижасида 11 миллиард куб метрга яқин сув иқтисод қилинди. Бу улкан кўрсаткич. Энг муҳими, сувни тежаш ишлари қишлоқ хўжалиги экинларининг ҳосилдорлигини ошириш билан уйғун ҳолда амалга оширилмоқда. Давлатимиз раҳбари ҳам ўз табригида айнан шу жиҳатга эътибор қаратди: **"Сув тежовчи технологияларни кенг жорий этганимиз ҳисобидан сув сарфи 1990 йилларга нисбатан 2 карра камайиб, ҳар бир куб метр сув эвазига олинаётган ҳосил миқдори ошиб бораётгани биз учун ғоят муҳимдир".**

Мен сув хўжалиги соҳасида меҳнат фаолиятимни бошлаган 2005 йилдан буён пахта етиштирувчилар билан елкадошман, десам асло муболаға қилмаган бўламан. Ғўзага қандай ишлов берилиши, қачон суғориш, қанча миқдорда сув бериш кабиларни тажрибали сувчиларнинг барчаси яхши билади. Рақамларга мурожаат қиладиган бўлсак, 2017 йилда мамлакатимизда бор-йўғи 28 минг гектар майдонда сув тежовчи технологиялар қўлланилган эди. Бугунги кунда эса уларнинг қамрови 2,8 миллион гектарга, яъни жами суғориладиган майдонларнинг қарийб 65 фоизига етди. Фақат жорий йилнинг ўн ойида 654 минг гектар майдонда сув тежовчи технологияларни жорий этиш ва ерларни лазерли текислаш тадбирлари амалга оширилди. Хусусан, 144 минг гектарда томчилатиб, 28 минг гектарда ёмғирлатиб суғориш технологиялари жорий этилди. Яна 110 минг гектарда дискрет ва эгилувчан қувурлар орқали суғориш усуллари қўлланилди, 70 минг гектарда плёнка тўшаб суғориш йўлга қўйилди. Шунингдек, 302 минг гектар ер лазер ускуналари ёрдамида текисланди. Бу технологиялар сувни дала бўйлаб бир текис тақсимлаш, унинг беҳуда сарфланишини камайтириш ва ўсимликнинг намликка бўлган эҳтиёжини мақбул даражада таъминлаш имконини беради. Айниқса, пахтачиликда томчилатиб суғориш, эгилувчан қувурлардан фойдаланиш ва ерларни лазерли текислаш усуллари катта аҳамиятга эга. Чунки бундай ёндашув нафақат сув ресурсларини тежашга, балки суғориш жараёнини самарали ташкил этиш, меҳнат ва энергия сарфини камайтиришга ҳам хизмат қилади.

ҲАР БИР ГЕКТАР ОРТИДА МАШАҚҚАТЛИ МЕҲНАТ БОР

Пахтачиликда юқори ҳосил олиш учун фақат янги технологияларни жорий этишнинг ўзи етарли эмас. Суғориш тармоқларини мавсумга тайёрлаш, каналлар ва гидротехника иншоотларининг узлуксиз ишлашини таъминлаш, насос агрегатларини соз ҳолатда сақлаш, сув тақсимотини экинларнинг ҳақиқий эҳтиёжи асосида ташкил қилиш ҳам муҳим аҳамиятга эга. Бу вазифаларнинг асосий қисми сув хўжалиги ходимлари зиммасига тушади. Сувчилар учун суғориш мавсуми – масъулиятли ва тинимсиз меҳнат даври. Айниқса, жазирама ёз ойларида экинларни сувсиз қолдирмаслик, сув танқислиги кузатилган ҳудудларда мавжуд ресурсларни адолатли ва самарали тақсимлаш катта тажриба, билим ва фидойиликни талаб қилади.

Каналлардан сувни экин майдонларига етказиб бериш бир қарашда оддий жараёндек туюлиши мумкин. Аслида эса бунинг ортида мураккаб муҳандислик тизими, мунтазам назорат, аниқ ҳисоб-китоб ва кўплаб мутахассисларнинг ҳамжиҳатликдаги фаолияти туради. Бир ҳудудда сув тақсимоти режалаштирилса, бошқа жойда насос агрегатлари узлуксиз ишлаши таъминланади. Яна бир ҳудудда каналларни таъмирлаш ва бетонлаш ишлари олиб борилади. Мироблар эса бевосита далаларда сувдан мақсадли фойдаланилишини назорат қилади. Ана шундай кундалик, кўпинча кўзга ташланмайдиган меҳнат натижасида минглаб гектар майдонлар сув билан таъминланади, деҳқоннинг экинлари парваришланади, ҳосил етилади.

ИЛҒОР АГРОТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА СУВ ТАЪМИНОТИ – ЯГОНА МАҚСАД ЙЎЛИДА

2026 йил пахтачилигида қўлланилган инновацион ёндашувлар ҳам алоҳида эътиборга молик. Жумладан, анъанавий 90 ва 60 сантиметрлик қатор оралиқлари билан бирга, 76 сантиметрлик экиш схемаси кенг қўлланилди. Натижада ғўза кўчатларининг мақбул қалинлигини таъминлаш, майдонлардан самарали фойдаланиш ва юқори ҳосилдорликка эришиш учун қўшимча имкониятлар яратилди. Республика бўйича 603,8 минг гектар майдонда кўсак қурти ва гербицидга чидамли хорижий навлар ҳамда 285,7 минг гектарда тола сифати юқори бўлган маҳаллий навлар экилди. Шунингдек, 305,2 минг гектар майдонда замонавий илғор агротехнологиялар асосида пахта етиштириш йўлга қўйилди. Бу янгиликларнинг самарадорлиги кўп жиҳатдан сув таъминоти билан ҳам боғлиқ. Зеро, янги навларнинг биологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда суғориш тартибини белгилаш, тупроқ намлигини мақбул даражада сақлаш ва сув бериш муддатларига риоя қилиш ҳосилдорликнинг муҳим омилларидандир. Шу маънода, пахтачиликдаги бу йилги натижа агрономлар, селекционерлар, фермерлар ва сув хўжалиги мутахассислари ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик нақадар муҳимлигини яна бир бор намоён этди.

Айни пайтда сув хўжалигида рақамлаштириш жараёнлари ҳам изчил давом этмоқда. Сув сарфини ҳисобга олиш, унинг тақсимотини кузатиб бориш, гидротехника иншоотлари ва насос станцияларини автоматлаштиришга қаратилган ишлар бошқарув самарадорлигини оширишга хизмат қилмоқда. Энг муҳими, рақамли технологиялар сув ресурсларининг ҳаракати ва сарфини аниқ баҳолаш, йўқотишларни ўз вақтида аниқлаш ҳамда мавжуд сувдан оқилона фойдаланиш учун зарур шароит яратмоқда. Сувни бошқаришдаги бундай янгиланишлар пахтачилик билан чекланиб қолмайди. Улар ғаллачилик, боғдорчилик, сабзавотчилик ва қишлоқ хўжалигининг бошқа тармоқларида ҳам барқарор ҳосил етиштириш учун мустаҳкам замин бўлиб хизмат қилади.

ТАРИХИЙ НАТИЖА – ЯНГИ МАРРАЛАР УЧУН МУСТАҲКАМ АСОС

Бугун мамлакатимизда сув хўжалигини ривожлантиришга қаратилган ислоҳотларнинг моҳияти ўзгармоқда. Илгари асосий эътибор экин майдонларига имкон қадар кўпроқ сув етказиб беришга қаратилган бўлса, эндиликда устувор вазифа мавжуд ресурслардан энг юқори самара олишдан иборат. Бу ўзгариш айниқса, иқлим ўзгариши таъсири кучайиб, сув танқислиги тобора долзарблашиб бораётган ҳозирги даврда муҳим аҳамият касб этади. Жорий йилги рекорд пахта ҳосили шуни кўрсатдики, илм-фан, замонавий агротехнологиялар, сув тежамкорлиги ва фидокорона меҳнат уйғунлашган жойда юксак натижаларга эришиш мумкин. Албатта, 5 миллион тоннадан зиёд пахта хирмони, аввало, ер билан тиллашган деҳқон ва фермерларимизнинг улкан меҳнати самарасидир. Бироқ бу ютуқда далага ҳаётбахш сув етказиб берган, ирригация тармоқларининг барқарор ишлашини таъминлаган, сувдан оқилона фойдаланиш йўлида хизмат қилган сувчиларнинг ҳам ҳиссаси катта.

Президентимиз томонидан сув хўжалиги ходимлари меҳнатининг алоҳида эътироф этилгани соҳа вакилларига янги куч ва ғайрат бағишлаши, айни пайтда уларнинг масъулиятини янада ошириши шубҳасиз. Олдимизда турган вазифалар ҳали кўп. Сув тежовчи технологиялар қамровини кенгайтириш, ирригация тармоқларини модернизация қилиш, сув ҳисобини тўлиқ йўлга қўйиш ва рақамли бошқарувни ривожлантириш бундан кейин ҳам доимий эътибор марказида бўлади.

Рустам ҚАРШИЕВ,
Сув хўжалиги вазири ўринбосари.

FERMER XO‘JALIKLARIDA ELEKTR TA’MINOTI UZLUKSIZLIGINI TA’MINLASHNING ZAMONAVIY YECHIMLARI

(Boshi 1-sahifada)

QUYOSH NURI DALAGA QO‘SHIMCHA QUVVAT

Suratlarda bepoyon dala bag‘rida o‘rnatilgan quyosh panellari, ular ostidagi elektr jihozlari hamda qurilmalarni ko‘zdan kechirayotgan mutaxassislar aks etgan. Bu manzara zamonaviy dehqonchilikning yangi qirrasini ochadi: endi quyosh nuri faqat ekinni o‘sishi va rivojlanishini ta’minlovchi tabiat ne’mati emas, balki elektr ishlab chiqaruvchi manba hamdir. Quyosh panellari kunduz kuni elektr ishlab chiqarib, xo‘jalikning umumiy tarmoqdan olinadigan energiyaga ehtiyojini kamaytirishi mumkin. Amaldagi samara esa qurilma quvvati, ob-havo, iste’mol va o‘rnatish sharoitiga bog‘liq.



HAR BIR QURILMANING O‘Z O‘RNI BOR

Suratlarning birida quyosh panellari ostiga o‘rnatilgan DEYE rusumli invertor va elektr taqsimlash shkaflari ko‘rinadi. Invertor quyosh panellarida hosil bo‘lgan o‘zgarmas tokni iste’molchilar uchun zarur o‘zgaruvchan tokka aylantiradi. Taqsimlash va himoya qurilmalari esa elektr energiyasini uzatish hamda tizimni nosozliklardan himoyalashga xizmat qiladi. Ularning texnik holatini muntazam nazorat qilish elektr ta’minotining xavfsizligi va ishonchliligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

QUYOSH PANELINING O‘ZI KIFOYAMI?

Quyosh radiatsiyasi intensivligi yuqori bo‘lgan vaqtda elektr ishlab chiqarish ortadi, bulutli kunda susayadi, tun kirganda esa to‘xtaydi. Yana bir nozik jihat bor: odatiy tarmoqqa ulangan invertor tashqi elektr tarmog‘i uzilganda xavfsizlik uchun o‘chadi. Demak, panellar borligi nasos har qanday vaziyatda uzluksiz ishlaydi, degani emas. Buning uchun mos himoya vositalari, zaxira energiya manbai va mustaqil ishlashni ta’minlaydigan boshqaruv jihozlari zarur. Bunday yechimlarni xo‘jalik imkoniyatiga qarab bosqichma-bosqich joriy etish mumkin.

ZAXIRA QUVVAT – KUTILMAGAN UZILISHGA TAYYORGARLIK

Istiqbolli yechimlardan biri akkumulyatorli energiya saqlash tizimlaridan foydalanishdir. Ular ortiqcha elektr energiyasini zaxiralash va zarurat bo‘lganda undan foydalanish imkonini beradi. To‘g‘ri loyihalangan tizim elektr tarmog‘i uzilganda sug‘orish nasosining muayyan muddat ishlashini ta’minlashi mumkin. Bunda akkumulyator sig‘imi, nasos quvvati, invertorning texnik imkoniyatlari va xavfsizlik talablari kompleks hisobga olinadi.



BARQAROR QUVVAT – BARAKALI MEHNAT

Zamonaviy dehqonchilikda quyosh panellarini o‘rnatishning o‘zi yetarli emas. Elektr energiyasini oqilona taqsimlash, qurilmalarning texnik holatini nazorat qilish va kutilmagan uzilishlarga tayyor turish ham muhim. Har bir xo‘jalik suv va elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini hamda zaxira quvvat imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashi zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Zero, yerdan oqilona foydalangan dehqon yuqori hosildorlikka erishsa, energiya resurslarini samarali boshqargan fermer ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta’minlaydi. Quyosh energiyasidan elektr energiya ishlab chiqarishda foydalanish esa fermer xo‘jaliklarining energetik barqarorligini mustahkamlash va qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bahodir ERKINOV,
O‘z Res FA Energetika muammolari instituti Ilmiy laboratoriya mudiri, Phd, dotsent,
Abdimannof MUHAMMADIYEV,
tayanch doktorant, Phd,
Faxriyor TOLIPOV,
katta ilmiy xodim.

МАҲАЛЛА ОБОДЛИГИ – ХАЛҚ ФАРОВОНЛИГИ КЎЗГУСИ

(Боши 1-саҳифада)

Хусусан, шу кунга қадар маҳалланинг 24 та кўчаси асфальтланиб, тунги ёритиш чироқлари ўрнатилди. Бу эса нафақат кўчаларнинг ободлигини таъминлади, балки кечки вақтларда фуқароларнинг хавфсиз ва эркин ҳаракатланиши учун ҳам қулайлик яратди. Айни кунларда эса ушбу ишлар изчил давом эттирилиб, аҳоли ва пиёдалар хавфсизлигини таъминлаш мақсадида қарийб уч километр узунликда пиёдалар йўлакчаси барпо этилмоқда.

Маҳалла инфратузилмасини ривожлантиришда ижтимоий соҳа объектларини яхшилашга ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда. Жумладан, бир кунда 50 нафар беморни қабул қилиш имкониятига эга поликлиника ҳамда иккита мактаб тўлиқ таъмирланиб, замонавий қиёфа касб этди. Бу эса аҳолига тиббий хизмат кўрсатиш сифатини ошириш, ёш авлоднинг муносиб шароитларда таълим-тарбия олиши учун муҳим замин яратмоқда. Айниқса, 410 ўринли янги болалар боғчасининг барпо этилгани маҳалла ҳаётидаги муҳим воқеалардан бири бўлди. Энди кўплаб ота-оналар фарзандларини замонавий шароитларга эга мактабгача таълим муассасасига жойлаштириш имкониятига эга бўлмоқда. Эътиборлиси, бундай ўзгаришлар фақат йўллар, бинолар ва иншоотлар билан чекланмайди. Зеро, обод маҳалла бу, аввало, одамларнинг кайфияти, эртанги кунга ишончи, фарзандлар келажагига бўлган умидлари демакдир. Ҳар бир бунёд этилган иншоот, таъмирланган кўча ва яратилган қулайлик замирида инсон манфаати, унинг муносиб ҳаёт кечиришига бўлган эътибор мужассам. Шу маънода, "Амир Темур" маҳалласидаги бунёдкорлик ишлари мамлакатимизда инсон қадрини юксалтиришга қаратилган ислоҳотларнинг маҳалла даражасидаги амалий натижасидир. Бундай эзгу ташаббуслар изчил давом этиши эса ҳудуднинг янада обод бўлиши, аҳоли турмуш даражаси ва ҳаёт сифати юксалишига хизмат қилади. Зеро, Янги Ўзбекистоннинг янги қиёфаси, энг аввало, обод маҳаллаларда, фаровон хонадонларда ва юрт тараққиётига дахлдорлик ҳисси билан яшаётган инсонлар ҳаётида намоён бўлади.

Ориф ЖУМАНОВ,
"Qishloq hayoti" мухбири.

MAHALLIYLASHTIRILGAN URUG'LIK CHIGIT DORILASH MASHINASI ISHLAB CHIQILDI

(Boshi 1-sahifada)

Shu bilan birga, sohada jiddiy muammo mavjud edi: tukli va tuksizlantirilgan chigitlarni tayyorlaydigan ixtisoslashtirilgan sexlarning ko'p qismi 2005–2006-yillarda modernizatsiya va rekonstruksiya qilingan bo'lib, ushbu sexlarda asosan Ispaniyada ishlab chiqarilgan dorilash mashinalari ishlatib kelinmoqda. Uzoq yillar davomida kimyoviy preparatlar ta'sirida ishlab kelgan bu mashinalar nafaqat texnik, balki ma'naviy jihatdan ham eskirgan, ularni ta'mirlash va ehtiyot qismlar bilan ta'minlash import mahsulotlariga qaramlikni yanada kuchaytirgan edi, bu holat esa mahalliylashtirish siyosati nuqtai nazaridan ham, iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan ham o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalaga aylangan edi. Ana shu muammoning ilmiy yechimi Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti mutaxassislari tomonidan topildi: olib borilgan izchil ilmiy izlanishlar natijasida import o'rnini bosuvchi, to'liq mahalliylashtirilgan urug'lik chigit dorilash mashinasi ishlab chiqildi.

Yangi konstruksiyadagi mashinaning maqbul o'lchamlarini aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov ishlari bugungi kunga kelib o'z yakuniga yetdi, natijalar ishonchli ko'rsatkichlarni tasdiqladi, hozirda esa ushbu mashinaning barcha konstruktorlik hujjatlari to'liq tayyor holatga keltirilgan bo'lib, bu uni ishlab chiqarishga tatbiq etish uchun yo'l ochib bermoqda. Mahalliy olimlar tomonidan yaratilgan ushbu ishlanma nafaqat import qaramligini kamaytirish, balki urug'lik chigit tayyorlash jarayonining sifati va samaradorligini oshirish imkonini beradi, bu fan va amaliyot integratsiyasining yorqin namunasi bo'lib, mamlakatimiz paxtachiligini yangi texnologik bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Alisher AKRAMOV,
Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri, t.f.d., professor.

МИЛЛИОН ЭГАТЛАРДАН ҚУТИЛГАН ЎЗБЕК



(Кун бадиҳаси)

(Боши 1-саҳифада)

Ҳар бригадада қилинган ишлар ҳисобини юритадиган табелчи, суғориш насосини ҳайдайдиган тракторчи, дала шийпони қоровули штатлари бўларди. Уч-тўртта бригада бирикиб участкага бўйсунар, бу бирликда участка бошлиғи, механиги фаолият юритарди. Жамоа хўжалиги идорасида камида эллик чоғлиқ одам: ҳисобчилар, иқтисодчилар ротаси кеча-ю кундуз хизматга шай турарди. Жамоа хўжалиги машина-трактор паркидаги турли русумдаги техникаларни бошқариш, таъмирлаш, зарур эҳтиёт қисмлари билан таъминлаш каби касбу ҳунарларда ҳам ўртача юз чоғлик киши ишларди. Хўжалик омборлари, биолабораторияси, иссиқхонаси ва бошқа қўшимча тармоқларида ишлаётганлар сони ҳам уч рақамларда ифодаланарди. (Чорвачилик тизими ҳақида айтмай турайлик).

Юқоридаги рақамларни умумлаштирсак, ўртача бир ярим минг гектар майдонда деҳқончилик қиладиган жамоа хўжалигида ишловчилар сони бир ярим минг нафар атрофида бўларди. Ана шу бир ярим минг нафар одам йил-ўн икки ой меҳнат қилиб, охир оқибатда уч-уч ярим минг тонна пахта етиштирарди. Республикамиз олти миллион тонналик пахта етиштирган кезларда чигит қадалган далалар ҳажми икки миллион гектар атрофида бўлган. Демакки, олти миллион тонна пахта етиштириш жараёнида камида икки миллион киши қатнашган. (Яганалаш, ўтоқ ва терим мавсумида уларнинг сони беш-олти миллион нафарга етиши кундек аён). Бу рақамларни улуғ шоиримиз юрагидан дард бўлиб отилиб чиққан изтиробли сатрлар шунчаки тўқиб чиқарилмаганини исботлаш учун келтирдик. Ва буларни тилга олишимизга сабаб ҳам бор. Энди мавзу шу ҳақида. Бу йил мавсумда Янги Ўзбекистон фермерлари илк бора беш миллион тонналик пахта хирмони уйишди. Президентимиз пахтакорларни бу улкан ғалаба билан табриклар эканлар, ҳосилдорлик республика бўйича ўртача 56 центнердан ошгани, айрим далалардан 70-80 ва ҳатто 100 центнерлик хирмон уйилганини эътироф этдилар. Юртбошимиз табрикларида шу миқдор хирмон уйишда минг-минглаб тажрибали, маҳоратли инсонлар фидойилиги ҳақида гап борди. "Миллион пахтакор" сўзи тилга олинмади. Тўғри-да, тилга олинмагани. Борни бор деймиз-да. Мажбурий-ихтиёрий ҳашар дегани аллақачон тарих мулкига айланиб кетган бўлса. Қўл терими тақдирига ҳам шу қисмат ёзилиши аниқ бўлиб қолган бўлса. Қишлоқ хўжалигида олиб борилган ислоҳотлар самараси ўлароқ, деярли бутун меҳнат жараёни техника зиммасига юкланган, энг машаққатли ҳисобланмиш йиғим-терим мавсумида "олтин қўллар" ўрнини "темир қўллар" олган бўлса. Бу йилги мавсумда беш миллионлик пахта хирмони яратиш жараёнида қанча одам қатнашди, деган ҳақли савол туғилади. Масъул идораларнинг расмий ҳисоб-китоблари ўз йўлига, яхшиси, бу рақамларни аниқ бир ҳудуд мисолида тақрибан келтирган маъқул.

Хоразмлик фермерлар мавсумда 420 минг тонна пахта етиштиришди. Яна денг етмиш минг гектарга чигит қадаган ҳолатда. Воҳада ўтган аср адоғида энг кўпи 460 минг тонналик маррага эришилганди. Бу ҳосил салкам икки юз минг гектар майдонлардан териб олинганди. Ўша даврда вилоятда юздан ортиқ колхозлар бор эди. Ҳар бир колхозда дала ишларида ўртача бир ярим минг киши машғул эди. Бундан ташқари ҳар бир туманда қишлоқ хўжалиги соҳасига масъул ўнлаб турли идора ва ташкилотлар бўлар, уларда ҳам минглаб кишилар ишлашарди. Ўша идора ва ташкилотларнинг вилоятларда бошқарма, трест каби йирик қўшилмалари бўларди. Ушбуларни тақрибан ҳисобласак ўттиз-қирқ йиллар муқаддам вилоятда 460 минг тонналик хирмон уйиш жараёнида камида икки юз минг киши қатнашгани маълум бўлади. (Мавсумда ҳашарчилар ҳисобидан бу рақам уч ҳисса ошарди ҳам).

Ҳозирдачи?

Бугун вилоятда пахтачиликка ихтисослашган йирик фермер хўжаликлари сони бир ярим мингдан сал ортиқ. Ҳар бир фермер хўжалигида ўртача ўн беш киши меҳнат қилади. Умуман, воҳада айнан деҳқончилик билан машғул аҳоли қатлами сони йигирма беш минг кишига бормайди. Муқаддам оддий деҳқон елкасига ортиқча юк бўлган турли ташкилот ва идоралар аллақачон тугатиб юборилган. Мавсумда эришилган 420 минг тонналик катта хирмонни ана шу инсонлар – йигирма беш минг киши – асл деҳқонлар яратишди. Бу эса ҳар бир далада ишлаётган киши ҳисобига 17 тоннадан пахта тўғри келади, дегани. Энди ушбу рақамни кечаги кун кўрсаткичи билан таққослайлик. "Оқ олтин"ни олтин қўллар яратади!" шиорлари янграган даврда республикамизда икки миллиондан зиёд киши айнан қишлоқ хўжалиги соҳасида меҳнат қилганини эслатсак ва ушбу рақамни 17 га кўпайтирсак... 34 миллион рақами келиб чиқади. Яъни, ҳозирги замон технологиялар ва тажрибалари амалда бўлганида ўша даврда республикамиз 34 миллион тонна пахта етиштириши керак бўларди. Мана, Янги Ўзбекистонда илк бора уйилган беш миллион тонна пахтанинг қадри-қиймати! Мана инсон омилига бўлган эътибор! ...Бу ёғига миллион эгатлардан қутилган ўзбек иборасини ишлатганимиз маъқул. (Оз сонли дала меҳнаткашлари яратган улкан хирмоннинг иқтисодий томондан қанчалик самарали эканлигини ҳисоб-китоб қилишни мутахассислар ихтиёрига қолдирамиз).

Рўзимбой ҲАСАН,
Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси.

↘ *Долзарб мавзу*

ҚАРОВСИЗ ҚОЛГАН, ДАЙДИ ҲАЙВОНЛАРДАН ЭҲТИЁТ БЎЛИНГ!

Улар қутуриш касаллиги тарқатувчилар бўлиши мумкин



Қутуриш касаллиги ҳайвонлар ва одамлар ўртасида учрайдиган бедаво дард бўлиб, вақти-вақти билан ҳайвонлар ўртасида учраб туради. Ҳозирги кунда қўшни чегарадош республикаларда ҳамда республикамизнинг айрим тоғли ҳудудларида қутуриш касаллиги бўйича эпизоотологик ва эпидемиологик ҳолат мавсумий тарзда бироз ўзгарган. Шунинг учун ҳар бир фуқаро бу касаллик тўғрисида ундан сақланиш учун маълум даражада тушунчага эга бўлиши зарур.

Қутуриш касаллиги қўзғатувчисининг асосий манбаи ва резервуарлари ёввойи йиртқич ҳайвонлар (бўри, чиябўри, тулки, кўршапалак) ва уй ҳайвонлари (ит, мушуклар) ҳисобланади. Камдан-кам ҳолларда от, йирик ва майда шохли ҳайвонлар, чўчқа, кемирувчи ва бошқалар ҳам касаллик манбалари бўлиши мумкин.

Шуни ҳам таъкидлаш керакки, қутуриш касаллигининг тарқалиши мавсумий аҳамиятга эга. Касаллик асосан, баҳор ҳамда куз фаслларида қайд қилинади. Бунинг асосий сабаби ит, тулки ва бошқа ёввойи ҳайвонларнинг кўпайишидир. Шунинг учун қаровсиз қолган, дайди итлар ва хонадон итларидан жуда ҳам эҳтиёт бўлиш зарур. Касаллик вируси ушбу касалликка чалинган ҳайвонларнинг тишлаши, тирнаши, тишларининг қадалиши натижасида жароҳатланган тери ва шиллиқ қаватларга сўлакнинг тушиши натижасида юқади.

Қутуриш касаллиги ҳайвонлардан ҳайвонларга, ҳайвонлардан одамларга юқади.

Ҳайвонларда касалликнинг биринчи белгилари юзага келишидан 10 кун олдин, улар юқумли ҳисобланади. Яширин давр ўртача 1 ойдан 3 ойгача давом этади, бу давр баъзи ҳолларда 7 кундан 1 йилгача ва ундан ортиқ ҳам давом этиши мумкин. Касаллик яширин давринг муддати жароҳат етказилган жойга, унинг чуқур ёки юзакилигига боғлиқ.

Қутуриш касаллигининг ташхиси клиник, эпидемиологик маълумотлар ҳамда лаборатория текширув натижалари асосида қўйилади.

Қутуриш касаллигидан сақланиш учун республикамизда аҳолига антирабик ёрдам кўрсатиш тизимли равишда олиб борилади. Шу сабабли ҳар бир шикастланган фуқаро албатта, зудлик билан даволаш профилактика муассасаларига мурожаат қилиши шарт.

Даволаш-профилактика муассасалари ҳайвонлардан жароҳат олган шахсларни аниқлайди, уларга биринчи тиббий ёрдам кўрсатиб, жабрланганларга антирабик ёрдам олиш учун ҳудудий ТТБ травматология (хирургия) бўлими ёки пунктига йўналтиради, бу ерда беморга антирабик ёрдам кўрсатилади, шартсиз эмлаш курсини олган шахслар диспансер назоратига олинади ва аҳоли ўртасида қутуриш касаллигининг олдини олиш бўйича санитария-тарғибот ишлари ўтказилади. Барча ит, мушук ва бошқа ҳайвонлардан шикастланган шахсларга антирабик вакцина тавсия этилади.

Усмонжон ТЎХТАМАТОВ,
Санитария эпидемиологик осойишталик ва жамоат саломатлиги қўмитаси Норин тумани бўлими мутахассиси.

"МАЪРИФАТ" АКАДЕМИЯСИ"НИНГ "РЕКТОР"И



Талаба пайтим, 1999 йилнинг кузида "Маърифат" газетасининг "Мактаблар бўлими" мудири Қурбонбой Матқурбонов мени таҳририятга ишга таклиф қилиб қолди. Аслида шу пайтда "Миллий тикланиш"нинг сайёр мухбири эдим. Қурбонбой Матқурбонов мен ҳақимда тўғридан-тўғри бош муҳаррир Ҳалим Саидовга айтганми ёки биринчи ўринбосар Абдусамат Раҳимовгами, билмайман, нима бўлганда ҳам, октябрь ойида "Маърифат" газетасига ҳам 0,5 ставка мухбир лавозимига ишга қабул қилиндим.

3-курс талабаси учун бу лотереяга ютуқ чиққандай гап эди: стипендия ва икки газетадан ойлик олишни тасаввур қилиб кўраверинг...

Қизиғи, мен Иброҳим Ғафуровга "Маърифат"га ҳам ишга қабул қилинганимни ёки Ҳалим Саидовга "Миллий тикланиш"да ҳамон ишлаётганимни айтмаганман. Қувлик қилгандирман балки. Ҳозир ўйлаб кўрсам, бу ҳолатни икки бош муҳаррир ҳам билган, лекин индамаган бўлса керак. Яъни бу "сир"га бош муҳаррирларнинг инсонийлиги туфайли "кўз юмилган".

Шу тариқа "Миллий тикланиш" газетасидан берилган гувоҳномамдаги ёзув ҳақиқатга айланди: икки таҳририят ўртасида чиндан "сайёр мухбир" (ёки "айёр мухбир") бўлиб қолдим...

2001 йилда "Миллий тикланиш" газетасидан бўшадим. 2003 йилдан "Маърифат"да тўлиқ ставкада, Ҳалим Саидов бош муҳаррирлигидаги "меҳр мактаби"да фаолиятимни давом эттирдим.

"ЎЗБЕКИСТОННИ БИЛАСИЗМИ?"

Менга шундай савол беришса, иккиланмай "ҳа" деб жавоб берардим.

Спорт мамлакатни (Ўзбекистонни) дунёга танитади, деган гап бор. Бугун фахр билан айта оламанки, спорт менга Ўзбекистонни танитган.

Чунки мен "Маърифат"да "Сиёсат, халқаро ҳаёт ва спорт янгиликлари" бўлими муҳаррири пайтимда (Наргиза Тўхлиева, Шаҳобиддин Мусаев, марҳум Саиджон Махсумов, Зоҳиджон Холов, Мадина Тоғаева билан яйраб ишлаганмиз) спортсевар бош муҳарриримиз Ҳалим ака томонидан Ўзбекистоннинг барча – 12 та вилояти ва Қорақалпоғистон Республикасига бир неча мартадан хизмат сафарига юборилганман. 2005 йил сентябри кунларининг бирида Ҳалим Саидов ҳузурига чақиртирди. Кирдим. "Сурхондарёга хизмат сафарига жўнатмоқчимиз. Сариосиё, Узун, Денов туманлари экологияси бузилмоқда. Тожикистон билан чегарадош бўлган туманларга бориб, Тожикистон алюминий заводининг Сурхондарёнинг шимолий туманларига таъсирини ўрганиб, одамлардан фикрлар олиб, халқаро масала сифатида кўтариб, кейинги шанба сонига материал тайёрлаб келасиз" деди. Хизмат сафари харажатлари эртагаёқ берилиши, Термизга қатнайдиган самолётга тезда билет сотиб олишни тайинлади. "Хўп" деб, бош муҳаррир хонасидан чиқдим. Бу фаолиятимдаги сиёсат билан боғлиқ биринчи жиддий топшириқ эди.

Эртасига хизмат сафари харажатини олиб, аэропортга бордим. Кассага борсам, кассир мен кетишим керак бўлган санага билет йўқлигини айтди. Бошим қотди. Ҳартугул телефон рақамлари ёзилган ёндафтаримни олиб борган эканман. "Маърифат"да 1-2 ой олдин Тошкент авиация транспорт прокурорининг ёрдамчиси, 3-даражали юрист Равшан Машарипов деган ҳуқуқшуноснинг бир материалини таҳрир қилиб, чиқишига кўмаклашган эдим (шахсий архивимда "Маърифат"да ишлаган пайтимга оид ёзув билан тўлдирилган 15-20 тача ёндафтар бор бўлиб, фактларни шу қайдлардан олдим). "Аэропорт, билет масаласида ёрдам керак бўлса, қўнғироқ қиларсиз" дея телефон рақамини бериб кетгани қўл келди. Ёндафтаримдан телефон рақамини топдим. Лекин унга қўнғироқ қилиш учун қўл телефони бор инсонлардан илтимос қилишим керак эди. 4-5 нафар қўл телефони бор ўткинчи унамади. Ниҳоят, бир саховатпеша инсон қўл телефонини берди. Қўнғироқ қилиб, ўзимни таништирдим ва муддаони айтдим. "Ҳаа, сизмисиз? Аэропорт ичкарисига кириб, вокзал бошлиғига менинг номимдан борганингизни айтинг, билет топиб беради", деди.

Шу тариқа мушкулим осон бўлди.

Белгиланган куни Тошкент аэропортидан эскироқ "Ан-24" (орқа томонидан салонга кириб бориладиган учоқ экан) самолётига чиқа солиб, чап томондаги бўш жойга – иллюминатор олдига ўтирдим.

Ҳаяжоним уч карра бўлди. Биринчиси – самолётга илк бор чиқишим. Иккинчиси – 6 минг метр баландликда (стюардесса шунча баландликда учиб кетаётганимизни айтганди), Жиззах, Самарқанд, Қашқадарё тоғлари устидан ўтиб (паст шундоқ равшан кўриниб тураркан), Сурхондарё томон учиб борардик. Шу тобда иллюминатордан кўрганим – самолётнинг чап қаноти устида қайсидир қисмлари алюминий сим билан боғлаб қўйилгани ҳуррамни учирди. Сим ечилиб кетса, нима бўлади?! Ҳаяжонга қўрқув қўшилди. Терлаб кетдим.

Учинчи ва энг қаттиқ ҳаяжоним – Тожикистондаги алюминий заводининг Сурхондарёга таъсирини ўрганиш бўйича қилинадиган ишлар – топшириқни қай даражада уддалай олиш ҳақидаги ўйларим эди.

Салоннинг чап тарафида ўтирганим қўл келди: Термиз сари борар ҳаво йўлимизда, иллюминатордан, адашмасам, Турсунзода шаҳридаги Тожикистон алюминий заводидан кўкка ўрлаётган тутунларга кўзим тушди. Тутунларни кўриб, менда мавзу ҳақидаги тасаввур тиниқлашди.

Термиз аэропортига қўнгач, вилоят халқ таълими бошқармаси вакили билан "Маърифат"нинг вилоятдаги мухбири Норқувват Тўраев олдига бордик. Норқувват ака билан Узун ва Сариосиё туманларига бўладиган хизмат сафари режасини тузиб олдик...

Хуллас, Узун ва Сарисоиё туманлари аҳолиси ҳаёти, туриш-турмуши, экологиясига Тожикистон алюминий заводининг салбий таъсири узоқ йиллардан бери сақланиб келаётгани ҳақидаги бир саҳифалик материал "Маърифат"да ёритилди...

РАҲБАР ХОДИМГА "СОЯБОН" БЎЛСА...

Иш бор жойда хато бўлади, бусиз иложи йўқ.

Мен "Маърифат"да ишлаган пайтимда икки марта "қовун туширганман". Иккови ҳам газета ҳаммуассислари фаолиятига оид.

Биринчиси – халқ таълими вазирлиги билан боғлиқ.

Эски ёндафтаримни варақлаб, эсимга тушди (бирор тадбирга борсам, сана, ой, йил, ташкилот номи, ўтказилган жой, иштирокчилар номини ёзиб қўярдим, мана, шулар ҳозир қўл келмоқда).

2004 йил 6 апрель. Ўзбекистон Республикаси халқ таълими вазири Рисбой Ҳайдарович Жўраев Афғонистон халқ таълими вазири Муҳаммад Юнус Қонунийни қабул қилди. Учрашувда "Маърифат" газетаси мухбири сифатида мен ҳам қатнашдим. Икки давлат халқ таълими вазири ўртасида қўшни мамлакатлар таълими хусусида суҳбат олиб борилди. 10-12 кишига мўлжалланган давра столи айлана шаклда бўлиб, доира бўйлаб стуллар қўйилган, икки вазир бир-бирига қарама-қарши ўтириб, таржимон кўмагида суҳбат олиб бораяпти. Деразанинг рўпарасидаги девор томонга 5-6 та стул қўйилган (мухбир ва бошқа шахсларга мўлжалланган аён эди). Шу стулларнинг бирига ўтирдим. Ёнимга халқ таълими вазирлиги ахборот таҳлил ва ташкилий ишлар бош бошқармаси бошлиғи Рўзимурод Чориев ўтирди.

Олдида стол бўлмаса, суҳбатдошлар томонидан айтилаётган фикрлар, маълумотларни ёндафтарга ёзиб бориш ноқулайлигини журналистлар яхши билишади. Чап қўлда ёндафтарни ушлаб, ўнг қўл билан ёзиб бориш ҳар қандай одамни толиқтиради. Айниқса, суҳбат узоқроқ давом этса (диктофонни олиб бормаганманми ёки ҳали диктофон берилмаган бўлганми, ҳозир аниғи ёдимга келмай қолди)...

Хуллас, қўлларим толиқиб бошлади ва Рўзимурод Чориевдан стол атрофидаги стуллардан бирига бориб ўтириш борасида рухсат олмасдан (ҳеч бўлмаганда, имо-ишора орқали изн олмай), ўзбошимчалик билан Рисбой Жўраев ва орамда 3 та стул қолдириб, тўртинчисига келиб ўтирдим. "Нотўғри қилмадим шекилли" деган ўйда ёндафтарни стол устига қўйиб, керакли маълумотларни ёзишда давом этдим...

Кейин билсам, "қовун туширган" эканман.

Билмадим, ўша куними, эртасигами, бош муҳарриримиз Ҳалим Саидов мени ҳузурига чақириб, тўғри иш қилмаганимни айтди...

***

Иккинчи "қовун"им адашмасам, Таълим ва фан ходимлари касаба уюшмаси республика кенгашининг пленуми билан боғлиқ. Аниқ йили ёдимда қолмабди: пленум бўлиб ўтган ва бу ҳақдаги икки саҳифали материал газетанинг навбатдаги сонида эълон қилинмоқда эди. Мен кечки навбатчиман (кечки навбатчи – барча 16 та саҳифани мусаҳҳиҳлардан кейин ўқиб, имло хатолари бўлса, тузаттириб, босмахонага дискда нашр лойиҳасини олиб боради, цехда газета сони босилгач, "тандир"дан биринчи бўлиб чиққан янги сонни синчиклаб кўздан кечириб, "босишга рухсат" деб ёзиб беради).

Хуллас, ҳозир сарлавҳаси аниқ эсимда қолмабди, тахминан "Таълим ва фан ходимлари касаба уюшмаси республика кенгаши пленуми бўлиб ўтди" деган сарлавҳали икки саҳифалик материалдаги "пленум" деган барча сўзни "қурултой" дея ўзбошимчалик билан ўзгартириб чиқдим. Ўзимча, "пленум" русча сўз, ўзбекчаси "қурултой" бўлади, деган бўлсам керак-да.

Эртасига Ҳалим Саидов ҳузурига чақиртирди. Кирсам, олдида касаба уюшмасида ишлайдиган бир аёл киши ўтирибди. Раҳбар ходимларидан бири бўлса, ажабмас. Бош муҳарририм у инсонни қайсидир сўзлар билан ҳовуридан туширган бўлса керак, лекин менга бу хато учун "тушунтириш хати" ёзишимни айтди. Ҳалиги аёл норозилигининг пилиги янаям пасайиб, хайрлашганча хонадан чиқиб кетди.

Мен ҳам хонамга келиб, "тушунтириш хати" ёздим ва бош муҳаррир қабулхонасига бериб қўйдим.

***

Бироқ ушбу икки хато учун Ҳалим Саидов менга ҳайфсан ҳам бермади, иқтисодий жазога ҳам тортмади.

Демоқчиманки, айрим раҳбарлар бўлади: қайсидир хато учун юқори турувчи ташкилотлардан эшитган дашномларига дашном қўшиб, ходимларни жазолайди. Аммо Ҳалим ака бундай эмасди. Бундай вазиятларда юқори турувчи ташкилотлардан эшитган дашномларини, назаримда, фильтрлаб, ходимларни ҳимоя қилган ҳолда, яхши сўзлар билан етказарди.

Бир сўз билан айтганда, иссиқ-шамол-ёмғир-дўлда ходимга "соябон" бўла оларди.

"МАЪРИФАТ" АКАДЕМИЯСИ"ДАГИ ЎН ЙИЛИМ

"Маърифат" газетасида ўтказган 10 йилимни ҳали-ҳамон умримнинг энг гўзал дамлари сифатида кўраман ва соғинаман.

Соғлом турмуш тарзи – журналист учун жуда муҳимлиги инобатга олиниб, стол тенниси ўрнатилган эди. Ходимлар бўш вақтидан ташқари иш вақтида ҳам 10-20 дақиқа "пинг-понг" ўйнашига бош муҳарриримиз изн бериб қўйганди: қон юришади, кўз равшанлашади, тана мунтазам ҳаракатда бўлади. Бу кун давомида компьютер қаршисида ўтирадиган журналист учун жуда муҳим жараён!

Стол тенниси бўйича таҳририят ходимлари ўртасида ҳар байрамда эркаклар ўртасида алоҳида, хотин-қизлараро алоҳида ички мусобақа ўтказилар, мен ҳам баъзан ҳакамлар орасида бўлсам, бош муҳарриримиз "Шер ака, доим холис бўлинг", деб қўярди.

Таҳририят ходимларининг минифутбол билан шуғулланишлари учун деярли ҳар йили янги форма, тўплар сотиб олиниб, ҳафтанинг маълум кунларида ижарага олинган майдонлар ёки залларда машғулот олиб бориларди. Устознинг ўзи ҳам ўйновчи-мураббий сифатида дарвозамизда қалқон бўларди. Мана шу машғулотлар ўз натижасини бермай қолмасди. Журналистлар ўртасида ўтказиладиган катта мусобақаларда "Маърифат" жамоаси ҳам совринли ўринларни қўлга киритган пайтлар бўлганди.

Компьютерда меъёри билан, иш унумига халақит қилмаган ҳолда ҳар ким ўзи хоҳлаган мусиқа ёки қўшиқни эшитишига тўсқинлик йўқ эди (мен кўпинча Шерали Жўраев қўшиқларини эшитардим, билсам, Ҳалим Саидов ҳам бу бетакрор санъаткорнинг мухлиси экан).

Гапнинг индаллосини айтганда, ўша йиллардаги "Маърифат" газетаси таҳририятига ҳамма ҳавас билан қararди. Шу боис мен у вақтларни "Маърифат" академияси", дея атагим келди.

Юқорида тилга олганларим – Ҳалим Саидов билан бир жамоада кечган 10 йилнинг хизмат билан боғлиқ туганмас таассуротлари эди. 20 ёшимдан 30 ёшимгача бўлган даврда айнан Ҳалим Саидов сарбонлигидаги "Маърифат" газетаси таҳририятида олган касбий ва ҳаётий сабоқларим 50 ёшни қоралаб қолган бугунги кунимда ҳам менга маёқ эканини айтсам, муболағага йўйманг!

ҲАВАСИНГИЗ КЕЛСИН!

Биласизми, ҳаётда энг бахтли инсон ким?

Ҳаётда энг бахтли инсон – 60 ёшга тўлганида ҳам уни қутлаб, бағрига босаётган ота-онаси қучоғида мамнунликдан бутун оламни унутган киши!

Ҳаётда энг бахтли инсон – 60 ёшга тўлганида ҳам қиблагоҳи ва муштипаридан табрик қабул қилиб олаётган одам!

Ҳаётда энг бахтли инсон – 60 ёшга тўлганида ҳам хато иш қилиб қўйса, падари ва онаизоридан "ҳалиям боласан-а", дея танбеҳ эшитган "туноҳкор" банда!

Ҳаётда энг бахтли инсон – 60 ёшга тўлганида ҳам, Аллоҳга шукрона айтиб, ота-онасига сидқидилдан меҳрибонлик кўрсатаётган зот!

Ҳавасингиз келсин: бу инсон устозимиз – Ҳалим Саидов!

Устоз, ўзингизга ҳам фарзандларингиз 60 ёшга тўлганда уларни фахр ва ифтихор билан бағрингизга босиб, табриклаш насиб этсин!

Шерали КАРВОНЛИ,
"Халқ таълими аълочиси".

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА АГРАР ТАЪЛИМ ВА ИЛМ-ФАННИ РИВОЖЛАНТИРИШ БАРҚАРОР ТАРАҚҚИЁТ ГАРОВИ



Нодира РАУПОВА,
ТДАУ профессори, биология фанлари доктори.



(Боши 1-саҳифада)

Президентимизнинг 2026 йил 11 апрелдаги "Тошкент давлат аграр университети фаолиятини такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарори аграр таълим тизими тараққиётида муҳим стратегик аҳамиятга эга. Ушбу қарор аграр олий таълимини замон талаблари асосида қайта кўриб чиқиш, мутахассислар тайёрлаш сифатини ошириш ва университетни нафақат таълим берувчи, балки илм-фан ва инновациялар яратиладиган илмий марказга айлантиришга хизмат қиладиган муҳим масалалардан бири – аграр таълим мазмунини реал ишлаб чиқариш эҳтиёжлари билан янада яқинлаштиради.

Чунки бугунги битирувчи ер, тупроқ, сув, ўсимлик ва агротехнологиялар ҳақидаги назарий билимлар билан чекланиб қолмасдан, уларни амалиётда қўллай олиши, замонавий лаборатория жиҳозлари билан ишлаши, рақамли маълумотларни таҳлил қилиши ва мураккаб агроэкологик муаммоларга илмий асосланган ечимлар таклиф эта олиши зарур. Бу борада дуал таълим, "аграр таълим – ишлаб чиқариш кооперацияси", илмий-тадқиқот ва тажриба ишларини кенгайтириш алоҳида аҳамиятга эга. Талаба аудиторияда олган билимини далада, фермер хўжалигида, агрокластерда ёки замонавий лабораторияда синовдан ўтказиши лозим. Ана шунда таълим жараёнининг самарадорлиги ортади ва меҳнат бозори талабларига жавоб берадиган ҳақиқий мутахассис шаклланади. Айниқса, тупроқшунослик ва агрокимё йўналишларида амалий тайёргарлик ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Чунки тупроқ қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг асосий воситаси ва миллий бойликдир. Унинг унумдорлигини сақлаш, деградация жараёнларининг олдини олиш, шўрланиш ва эрозияни баҳолаш, агрокимёвий ҳолатини мунтазам мониторинг қилиш бугунги куннинг долзарб илмий ва амалий вазифаларидандир. Шу нуқтаи назардан, бўлажак тупроқшунос ва агрокимёгарлар тупроқ ва озуқа моддаларини таҳлил қилиш, ўғитлаш меъёрларини илмий асосда белгилаш, ер ресурсларини баҳолаш, замонавий агролабораторияларда ишлаш ҳамда геоахборот тизимлари, масофадан зондлаш ва рақамли технологиялардан фойдаланиш кўникмаларини чуқур эгаллаши зарур.

Бугунги аграр профессор ва ўқитувчиларининг вазифаси ҳам ўзгармоқда. Энди педагог фақат билим берувчи эмас, балки ёшларни илмий изланишга йўналтирувчи, инновацион ғояларни шакллантирувчи, амалиёт билан боғловчи ва уларнинг касбий ривожланишига раҳбарлик қилувчи устоз сифатида намоён бўлиши зарур. Шу маънода, профессор-ўқитувчиларнинг илмий салоҳияти, халқаро тажрибаси ва замонавий технологияларни эгаллаганлиги таълим сифатига бевосита таъсир кўрсатади. Яна бир муҳим жиҳат аграр таълимда ёш олимларни қўллаб-қувватлашдир. Ёш тадқиқотчиларга замонавий лабораториялар, илмий грантлар, халқаро лойиҳалар ва ишлаб чиқариш корхоналари билан ҳамкорлик қилиш имкониятларини яратиш келгусида мамлакатимиз аграр илм-фанининг янги авлодини шакллантиради. "Smart University" тизимининг жорий қилиниши ҳам аграр таълимни янги сифат босқичига кўтаришга хизмат қилади. Рақамлаштириш орқали таълим жараёнини самарали бошқариш, талабаларнинг билим олиш фаолиятини мониторинг қилиш ва илмий-тадқиқотларнинг ахборот базасини шакллантириш имкониятлари кенгаяди.

Шу билан бирга, GAT, масофадан зондлаш, сунъий интеллект ва аниқ деҳқончилик технологияларини ўқув жараёнига кенг татбиқ этиш келажак аграр мутахассисининг рақобатбардошлигини белгилайди. Шундай экан, аграр таълимга киритилаётган ҳар бир сармоя – мамлакатнинг озиқ-овқат хавфсизлигига, тупроқ ва ер ресурсларини асрашга, қишлоқ хўжалигининг рақобатбардошлигига ва энг муҳими, Янги Ўзбекистоннинг барқарор келажагига киритилаётган сармоядир. Қарорда белгиланган вазифаларнинг аҳамиятини баҳолашда ривожланган мамлакатлар аграр таълим тизими тажрибаси муҳим илмий-амалий аҳамиятга эга. Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, замонавий аграр университетнинг рақобатбардошлиги фақат ўқув дастурларининг сифати билан эмас, балки таълим, илм-фан, инновация ва ишлаб чиқаришнинг қанчалик чамбарчас боғлангани билан ҳам белгиланади. Сўнгги йилларда Европа мамлакатларида аграр таълим ва инновация тизимида "Living Lab", яъни "тирик лаборатория" ёндашуви кенг тарқалмоқда. Унинг асосий моҳияти олимлар, талабалар, фермерлар, тадбиркорлар ва давлат ташкилотларининг биргаликда реал муаммолар ечими устида ишлашидир. Масалан, тупроқ унумдорлигининг пасайиши ёки сув ресурсларидан самарасиз фойдаланиш муаммоси лаборатория шароитидагина эмас, балки муайян фермер хўжалиги ёки тажриба майдонида ўрганилади. Олим илмий методологияни, талаба амалий ва тадқиқот кўникмасини, фермер эса ишлаб чиқариш тажрибасини олиб киради. Натижада амалиётга тез жорий этиш мумкин бўлган илмий ечимлар шаклланади. Халқаро тажриба шуни кўрсатадики, XXI аср аграр университети илм-фан яратадиган, инновацияларни синовдан ўтказадиган, фермер ва ишлаб чиқарувчиларга амалий ечимлар таклиф этадиган ҳамда мамлакатнинг озиқ-овқат ва экологик хавфсизлигига бевосита ҳисса қўшадиган интеллектуал марказга айланиши лозим. Шу нуқтаи назардан, қарорда белгиланган вазифалар – Тошкент давлат аграр университетини 2030 йилга қадар халқаро даражадаги нуфузли аграр олийгоҳга айлантириш, уни халқаро рейтингларнинг ТОП–500 талигига киритиш, аграр таълим–ишлаб чиқариш кооперациясини ташкил этиш, агроинновация хабларини ривожлантириш ва "Smart University" тизимини жорий этиш жаҳон аграр таълимидаги илғор тенденциялар билан ҳамоҳанг стратегик ислоҳотлардир. Энг муҳим вазифамиз шундан иборатки, ушбу ислоҳотларни фақат ташкилий ўзгариш сифатида эмас, балки аграр таълимнинг мазмуни ва сифатига таъсир кўрсатадиган чуқур интеллектуал янгиланиш сифатида амалга ошириш зарур. Бунинг учун замонавий лабораториялар, кучли илмий мактаблар, халқаро ҳамкорлик, тажриба далалари, фермерлар билан узвий алоқа ва рақамли технологияларни бир бутун инновацион тизимга бирлаштириш лозим. Ана шунда аграр таълим Янги Ўзбекистоннинг озиқ-овқат хавфсизлиги, экологик барқарорлиги ва илм-фанга асосланган тараққиётининг устуни ва ишончли таянчига айланади.

НАЖОТ – ЭКОМАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШДА

Инсон табиатнинг бир бўлаги, унинг эгаси эмас. Табиатга бўлган шафқатсиз ва истеъмолчилик муносабати аллақачон ўз мевасини бера бошлаган. Иқлим ўзгариши, Орол фожеасининг асоратлари, тез-тез кузатилаётган чанг бўронлари ва тоза ичимлик суви танқислиги... буларнинг барчаси табиатнинг инсониятга айтаётган "оҳ-воҳ"ларидир. Биз яшил майдонларни қисқартириб, ўрнига кўп қаватли "бетон ўрмонлар"ни барпо этяпмиз.



Дарахтларни аёвсиз кесиш, сув ҳавзаларини чиқинди билан тўлдириш одатий ҳолга айланиб бораётгани ачинарлидир. Яна бир оғриқли нуқтамиз – ҳар йили куз мавсумида одатий ҳолга айланган хазон ёқиш одатидир. Кўпчилик тўкилган баргларни шунчаки тозалаш деб ўйлаб, уларни оловда ёқади. Ваҳоланки, хазон ёқилганда ҳавога жуда хавфли заҳарли моддалар: ис гази, диоксинлар ва инсон саломатлигига жиддий хавф туғдирувчи оғир металл бирикмалари ажралиб чиқади. Бу тутун нафақат нафас йўли касалликлари (айниқса астма, бронхит) бор инсонлар, балки ёш болалар ва кексалар саломатлигига ҳам соя солади. Хазон ёқиш – нафас олаётган ҳавомизни ўзимиз онгли равишда заҳарлашимиздир. Шу боис, бу қилмиш нафақат экологик ва тиббий, балки жиддий қонунбузарлик ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 88-моддасига асосан, хазон ва ўсимлик қолдиқларини ёқиш қатъиян таъқиқланган. Ушбу қоидани бузганлик учун фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг 3 бараваридан 5 бараваригача, мансабдор шахсларга эса 5 бараваридан 10 бараваригача миқдорда маъмурий жарима солиниши белгилаб қўйилган. Қонун талабларини билиш ва унга амал қилиш бурчимиздир. Хазонлардан табиий ўғит сифатида фойдаланиш ёки ерга кўмиш орқали тупроқ унумдорлигини ошириш мумкин.

Нажот экомаданиятни юксалтиришда. Тозаликни кўчага чиқинди ташламасликдан, сувни исроф қилмасликдан, хазонларни ёқмасдан уларни фойдали ўғитга айлантиришдан ва ҳеч бўлмаганда йилига битта кўчат экиб, парваришлашдан бошлашимиз зарур. Табиат инсонсиз яшай олади, аммо инсон табиатсиз яшай олмайди. Бу олтин қоидани ҳеч қачон унутмайлик!

Радха БОБОЕВА,
Бухородаги Осиё халқаро университети талабаси, тиббий ҳамшира.



POMIR VA TYANSHAN MUZLIKLARINING ERISHI MARKAZIY OSIYODA SUV KVOTALARINI YANGILASH ZARURATINI YUZAGA CHIQARADIMI?

Yettinchi oktabr kuni Turkmanistonning Kaspiy dengizi sohilidagi Avazada to'plangan vakillar Amudaryo va Sirdaryodan 2026-2027-yilgi kuz-qish mavsumida suv olish limitlarini tasdiqladi. Har bir mamlakatga qancha suv ajratilgani yig'ilish bayonnomasining e'lon qilinmagan ilovalarida keltirilgan. Markaziy Osiyo davlatlari suv taqsimotini yiliga ikki marta kelishib oladi. Bu tartib 1992-yilgi Olmaota bitimiga tayanadi. Markazlashgan sovet iqtisodiyoti uchun yaratilgan suv taqsimoti tizimi shu bitim orqali besh mustaqil davlat o'rtasida ham amal qilishda davom etdi. Hukumatlar suv bo'yicha muntazam muzokara olib borish imkoniga ega bo'ldi. Tizim daryo oqimi barqaror qoladi degan taxminga asoslangan. Muzliklar qisqarishi bilan bu oqim ham o'zgarmoqda.

CANEECCA ma'lumotiga ko'ra, Amudaryo va Sirdaryo oqimining 70-80 foizini Pomir va Tyanshan tog'larida qor va muz erishidan hosil bo'ladigan suv ta'minlaydi. Shveysariyalik tadqiqotchilar Tyanshan muzliklari qariyb yarim asrda o'z massasining 27 foizini yo'qotganini aniqlagan. Ularning hisob-kitobiga ko'ra, 2050-yillarga borib muzliklar massasining qariyb yarmi yo'qolishi mumkin. Pomirda muzliklarning jadal erishi hozircha daryolardagi suv oqimini ko'paytirmoqda. Uzoq muddatda esa suv zaxirasi keskin kamayishi mumkin.

Bugungi suv mo'lligi kelajakdagi muz zaxirasi hisobiga yuzaga kelmoqda. Sersuv yillarda kelishilgan limitlar oqim pasaygach ham amal qiladi. Suv tanqisligi qurg'oqchil yillarga to'g'ri kelsa, davlatlar o'rtasidagi bahslar yanada keskinlashishi mumkin. Yirik muzliklar erigan sari tezroq eriydigan mayda bo'laklarga ajraladi. Shu sabab muzliklar soni ortishi bilan birga muzning umumiy hajmi kamayishi mumkin.

Suvni kvota asosida taqsimlash uchun ishonchli o'lchovlar kerak. Sovet Ittifoqi parchalangach, muzliklarni kuzatish dasturlari to'xtadi va yaqindagina qayta yo'lga qo'yildi. Amudaryodagi Kerki gidropostida suv sathi bir xil bo'lganida suv sarfi turlicha qayd etilgan. Komissiya mutaxassislardan buning sababini tushuntirishni so'radi. O'lchashning yagona usuli bo'lmasa, bunday tafovut biror davlatni limitdan ortiq suv olganlikda ayblashga sabab bo'lishi mumkin. Kvotadan oshgan davlatga nisbatan huquqiy yoki iqtisodiy jazo choralari belgilanmagan. Qurg'oqchil yillarda ham bunday nizolar vazirlar darajasidagi muzokaralar yoki prezidentlar aralashuvi orqali hal qilinadi. Sovet davrida Qirg'iziston va Tojikiston yozgi sug'orish uchun suvni omborlarda saqlar, evaziga yoqilg'i va elektr energiyasi olardi. Ittifoq parchalanishi bilan bu almashinuv tizimi ham barham topdi.

Aprel oyida Qirg'iziston prezidenti mamlakatda yiliga qariyb 50 milliard kub metr suv shakllanishini, shundan qariyb 38 milliard kub metri qo'shni davlatlarga oqib o'tishini aytdi. Qirg'iziston suvni omborlarda saqlash va inshootlarga xizmat ko'rsatish xarajatlarini qoplash mexanizmini taklif qildi. 2026-yil yanvaridan kuchga kirgan yangi Suv kodeksi avvalgi suv va elektr energiyasi almashinuvidan bozor tamoyillariga o'tishni nazarda tutadi. Qozog'iston va O'zbekiston bunday to'lov bo'yicha huquqiy majburiyat yo'qligini bildirib, bevosita to'lovga rozi bo'lmayapti. Har ikki tomonning dalili asosli. Kvotalar esa ombor xarajatlarini kim va qanday qoplashini belgilab bermaydi. Bu orada mintaqaviy kvota tizimida qatnashmaydigan Afg'oniston 285 kilometrlik Qo'shtepa kanalini qurmoqda. Qurilishni 2028-yilda yakunlash rejalashtirilgan.

Amaldagi kvotalarni saqlagan holda suv taqsimoti tizimini uch tamoyil asosida yangilash kerak. **Birinchidan, o'lchov ma'lumotlarini almashish kerak.** Qozog'iston va O'zbekiston Sirdaryoda raqamli o'lchov uskunalarini o'rnata boshladi. Avazada davlatlar suv hisobini avtomatlashtirish bo'yicha ishchi guruh tuzishga kelishdi. Bu hamkorlik Pomir va Tyanshan muzliklarini birgalikda kuzatishni ham qamrab olishi kerak. Kuzatuv natijalaridan daryo oqimining mavsumiy prognozlarini tuzishda foydalanish mumkin.

Ikkinchidan, suv ulushlarini amalda o'lchangan oqimga bog'lash kerak. Sersuv yillarda belgilangan qat'iy hajmlar oqim kamaygan davrda ham majburiyligicha qoladi. Har bir davlatga ajratiladigan suvni o'lchangan oqimning kelishilgan ulushi sifatida belgilash lozim. Qurg'oqchilikda ajratiladigan hajmlar qaysi tartibda qisqartirilishi ham oldindan kelishib olinishi kerak. Shunda muzliklardan keladigan oqim avval ko'payib, keyin kamayganda suv taqsimoti ham unga moslashadi.

Uchinchidan, suv omborlariga birgalikda sarmoya kiritish kerak. 4,2 milliard dollarlik Qambarota-1 GESi loyihasida Qirg'izistonning ulushi 34 foiz, Qozog'iston va O'zbekistonniki 33 foizdan bo'lishi ko'zda tutilgan. Quyi oqimdagi davlatlar sarmoya kiritish orqali suv omborini boshqarishga oid qarorlarda ishtirok etadi. Bunday sheriklik Bishkek ko'targan xarajat masalasini har bir kub metr suvga alohida narx belgilamasdan hal qilish imkonini beradi. Eski kvotalar o'ttiz yil davomida suv yuzasidan murosani saqlashga xizmat qildi. Endi taqsimot qoidalari muz zaxirasining kamayishini, daryo oqimi haqidagi noaniqliklarni va kelishuv doirasidan tashqarida qurilayotgan kanalni hisobga olishi kerak. Markaziy Osiyo davlatlari daryolarda hali taqsimlashga suv bor paytda yangi qoidalarni kelishib olishga ulguradimi?

Muxlisaxon HAMIDOVA,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti.

Эълонлар

318 рақами (№0026279) билан 2005 йил 6 октябрда Ўзбекистон Республикаси Давлат мулки қўмитасининг Тошкент шаҳар бошқармаси томонидан Нуриддин Қиёмов номига берилган кўчмас мулкка эгалик ҳуқуқини берувчи Давлат ордери йўқолганлиги муносабати билан ҳақиқий эмас, деб ҳисобланади.

03-01/7247 рақами билан 1993 йил 12 апрелда Муртазаев Холмумин номига берилган хонадонга эгалик ҳуқуқини берувчи Давлат ордери йўқолганлиги муносабати билан ҳақиқий эмас, деб ҳисобланади.

11-02/2151 рақами билан 1993 йил 12 февралда Зотова Наталья Викторовна номига берилган хонадонга эгалик ҳуқуқини берувчи Давлат ордери йўқолганлиги муносабати билан ҳақиқий эмас, деб ҳисобланади.

10-01/17745 рақами билан 1993 йил 29 мартда Абдулина Роза Джалиловна номига берилган хонадонга эгалик ҳуқуқини берувчи Давлат ордери йўқолганлиги муносабати билан ҳақиқий эмас, деб ҳисобланади.

10-01/5216 рақами билан 1993 йил 8 февралда Королева Людмила Николаевна номига берилган хонадонга эгалик ҳуқуқини берувчи Давлат ордери йўқолганлиги муносабати билан ҳақиқий эмас, деб ҳисобланади.

Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti jamoasi institutning katta ilmiy xodimi, q.x.f.f.d. Shuhrat Sharipovga onasi
Muhabbat aya SHARIPOVAning
vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

Qishloq hayoti

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kompleksi tarkibidagi hamda boshqa daxldor vazirlik va idoralar.

Bosh muharrir:
Chori LATIPOV

Tahrir hay'ati:
Ibrohim ABDURAHMONOV,
Shavkat HAMROYEV, Narzullo OBLOMURODOV,
Eshmirza ABDUALIMOV, Habib TEMIROV,
Raimqul SUYAROV *(bosh muharrir o'rinbosari).*

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2009-yil 13-fevralda № 0020-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.
Hajmi 2 bosma taboq. Ofset usulida bosildi, qog'oz bichimi A-2. Nashr indeksi – 144.
Buyurtma G-1117. 2010 nusxada chop etildi.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.
Sahifalovchi-dizayner: Marks YUSUPOV.

Tahririyat manzili:
Toshkent viloyati Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Telefonlar: +998 77-080-43-70, +998 99-050-69-45.
Reklama va e'lonlar – (998 90) 317-19-16.
E-mail: infoqishloqhayoti@mail.ru Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida bosildi.
Bosmaxona manzili: "Buyuk Turon" ko'chasi, 41-uy. 1 2 3 4 5 6

ISSN 2010-7021

Bosishga topshirish vaqti: 21.00
Bosishga topshirildi: 19.00